RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH IMKONIYATLARI

Rustamova Dilshoda Baxtiyor qizi
Iqtisodiyot fanlari magistri,
Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlari
Email: dilshodarustamovabaxtiyorovna@gmail.com
ORCID: 0009-0000-3240-7663

Annotatsiya: *Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’sirining nazariy hamda empirik jihatdan tahlili olib boriladi. Jahon amaliyoti, xususan Yevropa va Xitoy tajribasi raqamli transformatsiya natijasida iqtisodiy o‘sish, bandlik va ekologik samaradorlikning yaxshilanganinidan darak beradi. O‘zbekiston misolida esa “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va IT Park loyihalari asosida raqamli iqtisodiyotning mamlakat modernizatsiyasi va diversifikatsiyasiga qo‘shayotgan hissasi yoritiladi. Tadqiqot raqamli iqtisodiyot barqaror rivojlanishning muhim omili ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, innovatsiya*

PROSPECTS FOR SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE ERA OF THE DIGITAL ECONOMY

Rustamova Dilshoda Baxtiyor qizi
Master of Economics, Tashkent State Transport University,
Tashkent, Uzbekistan
08.00.00 – Economic sciences
Email: dilshodarustamovabaxtiyorovna@gmail.com
ORCID: 0009-0000-3240-7663

Abstract: *This thesis analyzes the impact of the digital economy on sustainable economic growth from both theoretical and empirical perspectives. International practice, particularly the experience of European countries and China, demonstrates that digital transformation fosters higher economic growth, the creation of new employment opportunities, and improved environmental efficiency. In the case of Uzbekistan, the “Digital Uzbekistan – 2030” strategy and IT Park initiatives illustrate the contribution of the digital economy to the country’s modernization and*

economic diversification. The study substantiates that the digital economy serves as a crucial driver of sustainable development.

Keywords: *digital economy, sustainable development, innovation*

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy tizimning muhim bo‘g‘ini sifatida tan olinadi. Uning rivojlanishi o‘z navbatida mahsuldorlikni oshirishi, yangi ish o‘rinlari yaratishi va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashi shubhasiz. Jahon banki va BMT hisobotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, BMTning 2021-yildagi raqamli rivojlanish bo‘yicha hisobotida raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirgan davlatlar iqtisodiy o‘sish sur’atlari yuqoriligi qayd etilgan.

Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy o‘sishga ta’siri ikki asosiy yo‘nalishda ko‘rinadi:

1. Innovatsion rivojlanish. Raqamli texnologiyalar yangi xizmatlar va mahsulotlarning yaratilishini tezlashtiradi, biznes jarayonlarini avtomatlashtiradi va samaradorligini oshiradi. Masalan, elektron tijorat, fintech xizmatlari, onlayn ta’lim va raqamli sog‘liqni saqlash sohasi nafaqat yangi bozorlarni shakllantirmoqda, balki an’anaviy iqtisodiyot tarmoqlarida ham transformatsiya jarayonini kuchaytirmoqda.
2. Barqarorlikni ta’minlash. Raqamli iqtisodiyot energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “aqlli shahar” texnologiyalari transport va energetika tizimlarida resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi, raqamli monitoring tizimlari esa ekologik xavflarni erta aniqlash va bartaraf etishga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish va barqarorlikka ta’siri ko‘plab empirik tadqiqotlarda ham tasdiqlangan. Xususan, Yevropa Ittifoqi, Xitoy va O‘zbekiston misolida olib borilgan ilmiy izlanishlar raqamli texnologiyalar yalpi ichki mahsulot o‘sishi, mehnat unumdorligi va ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Bu esa raqamli iqtisodiyotning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sirini yaqqol isbotlab bermoqda. Empirik tadqiqotlar (Yevropa Ittifoqi, Xitoy) shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot indeksining o‘sishi bilan YaIM o‘sishi va karbon samaradorlik o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud [2]. Bundan tashqari, Jahon Banki ma’lumotlariga ko‘ra, keng polosali internet qamrovining 10% ga oshishi mamlakat YaIMini o‘rtacha 0,25% ga oshiradi [5]. Bu natijalar raqamli infratuzilmaning kengayishi iqtisodiy barqarorlik va innovatsion o‘sishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi. Bu ilmiy xulosalar raqamli iqtisodiyot nafaqat

texnologik taraqqiyot, balki iqtisodiy o‘sish va barqarorlikning ham muhim drayveri ekanini ko‘rsatadi. Quyidagi empirik dalillar buni yanada yaqqol tasdiqlaydi:

- Xitoyning 287 shaharida raqamli iqtisodiyotning 1% ga oshishi karbon samaradorlikni 0.148% ga yaxshilaydi [2].
- Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo‘yicha tahlil raqamli transformatsiyaning iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi [1].
- Global tahlillar ham raqamli rivojlanish va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni isbotlaydi [4].

Xalqaro tajribadan tashqari, O‘zbekiston misolida ham raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri yaqqol ko‘rinmoqda. Masalan, 2023-yilda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi 8,7% ni tashkil etib, shundan 1,8% — raqamli sanoat, 6,9% esa sanoatni raqamlashtirish hissasiga to‘g‘ri keldi [6].

Bugungi kunda yurtimizda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi, moliya, transport va ta’lim sohalarida keng ko‘lamli raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Mazkur strategiya quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Raqamli infratuzilma
- Raqamli sanoat
- Davlat boshqaruvini raqamlashtirish
- Kadrlar tayyorlash

Shuningdek, O‘zbekistonda raqamli transformatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy samaralarini yanada kengaytirish maqsadida IT Park va Jahon Banki hamkorligida “Digital Inclusion Project” loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha doirasida 2030-yilga borib 300 mingdan ortiq yangi IT ish o‘rinlari yaratish hamda 5 mlrd AQSh dollarlik eksport hajmiga erishish belgilangan [7]. Bu tashabbus raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni va salohiyatini yaqqol ifodalaydi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida innovatsion rivojlanishni jadallashtiradi, ekologik samaradorlikni oshiradi va iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytiradi. O‘zbekiston uchun u nafaqat iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirish, balki xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, uning barqaror rivojlanishga ta’siri uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali samaradorlikni oshirish; ikkinchidan, yangi biznes modellarini shakllantirib innovatsion imkoniyatlarni kengaytirish; uchinchidan, mehnat bozorida yangi kasb

va mutaxassisliklarning paydo bo‘lishiga olib keluvchi transformatsiyani rag‘batlantirish.

Biroq bu jarayonlar bilan bir qatorda mehnat resurslarini qayta tayyorlash, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish kabi vazifalar ham dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois, davlat siyosatida raqamli iqtisodiyot ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Xalqaro tajribalar ham shuni tasdiqlaydiki, raqamli transformatsiya muvaffaqiyati faqat infratuzilma rivojiga emas, balki inson kapitalini oshirish va innovatsion ekotizimni shakllantirishga bevosita bog‘liqdir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot milliy iqtisodiyotlarning barqaror o‘sishini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston sharoitida esa bu jarayonni yanada jadallashtirish uchun inson kapitaliga sarmoya kiritish, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Kelgusida raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘unlashtirish mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy vositalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dicu, R. (2024) *Digital economy and sustainability: Evidence from the European Union*. MDPI – Administrative Sciences.
2. Li, H. et al. (2025) *The digital economy and carbon emission efficiency in China’s cities*. Nature Scientific Reports.
3. Xu, X. (2024) *Digital economy development and sustainable growth: Evidence from China*. PMC.
4. Chen, Y. (2022) *Digital economy and economic growth: A global panel analysis*.
5. World Bank (2024) *Sustainable development of the digital economy*.
6. Center for Analysis and IT (2023) *Uzbekistan digital economy overview 2030*.
7. IT Park Uzbekistan (2024) *Digital inclusion project*.
8. Mahmudov, N. (2020) *The impact of the digital economy on economic growth in Uzbekistan*.